



*Nizomiy nomidagi TDPU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
404-guruh talabasi Ro'zimbayeva Umidaning
“Nizomiddin Mahmudov va o'zbek tilshunosligi”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi
Ilmiy rahbar: f.f.n. dotsent. I. Azimov.*

MUNDARIJA

Kirish. BMLning umumiy tavsifi

I Bob. N.Mahmudovning hayoti va faoliyati haqida

1.1. N.Mahmudovning hayoti yo'li.....

1.2. N.Mahmudovning ijtimoiy faoliyati.....

II Bob. N.Mahmudovning ilmiy faoliyati tahlili

2.1. N.Mahmudov o'zbek tilshunosligida yangi tadqiqot yo'nalishi asoschisi sifatida.....

2.2. N.Mahmudov - yangi avlod darsliklari muallifi sifatida.....

III Bob. Ishning amaliyotga tatbiqi.

N.Mahmudov asarlari bibliografiyasi


Tayanch so'zlarning o'zbekcha-inglizcha lug'ati

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

MAVZUNING DOLZARBLIGI

BUGUNGI KUNDA MAMLAKATIMIZDA YANGI HAYOT VA YANGI JAMIYAT POYDEVORINI BARPO ETISHDA ERKIN FUQARO MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALASI BIZ UCHUN G'OYAT DOLZARB AHAMIYATGA EGA. HAYOTIMIZNING BARCHA SOHALARIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN KENG KO'LAMLI ISLOHATLARIMIZNING SAMARADORLIGINI AVVALO XALQ MA'NAVIYATINING TIKLANISHI, BOY TARIXIY MEROSIMIZNING CHUQUR O'RGANILISHI, AN'ANA VA URF-ODATLARIMIZNING SAQLANISHI, MADANIYAT VA SAN'AT, FAN VA TA'LIM RIVOJI ENG MUHIMI JAMIYAT TAFAKKURINING O'ZGARISHI VA YUKSALISHI BILAN UZVIY BOG'LIQDIR



N.Mahmudovning o'zbek tilshunosligida bir qancha tadqiqotlari bilan o'zbek tilshunosligini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqqanligini yaxshi bilamiz. Olimning hayoti va ilmiy faoliyati bilan tanishib chiqish, tadqiqot ishlarini o'rganish o'zbek tilshunosligining buguni, yangi ilmiy nazariyalar tahlili va tadqiqini o'rganishga yo'l ochadi. Bu esa tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o`rganilganlik darajasi

**O`zbek tilshunosligida G`.Abdurahmonov ,
M. Asqarova kabi yirik tilshunoslar haqidagi
bibliografik ishlar, shu bilan birga bir qancha
tilshunos olimlarning nazariy qarashlari
tadqiqiga bag`ishlangan ishlar mavjud .
Masalani yoritishda ushbu sohadagi ishlar
yo`nalishlariga tayandik.**

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi ■

Tadqiqot Nizomiy nomidagi TDPU
o'zbek tilshunoslik kafedrasining <<
2012-2015 yillarga mo'ljallangan
BMI mavzulari banki>> istiqbol
rejasi asosida amalga oshirildi .

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy qimmatini N.Mahmudovning faoliyati o'rganilishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, tadqiqotning xulosalari va tahlil materiallari N.Mahmudovning o'zbek tilshunosligi taraqqiyotiga qo'shgan xissasi masalalariga oydinlik kiritadi, uni o'rganishda manba bo'la oladi. Ta'lim bosqichlarida tilshunoslik mavzusiga doir dars ishlanmalarini yaratishda amaliy material sifatida xizmat qiladi, o'zbek tilshunosligini o'rganishga bag'ishlangan amaliy mashg'ulotlarini o'tkazishda tadqiqot materiallaridan unumli foydalanish mumkin.



***Nizomiddin
Mahmudov
Mamadaliyevich***



1-bob N. Mahmudovning hayot yo'li va faoliyati haqida

1.1 N.Mahmudovning hayot yo'li

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligining dunyo miqyosiga chiqib borgani, yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgani shak-shubhasizdir. O'zbek tilshunosligining bunday ulkan yutuqlarini qo'lga kiritishda tilshunosligimiz darg'asi, aziz inson , zakiy olim , mehribon va talabchan ustoz, mohir rahbar , filologiya fanlari nomzodi, professor Nizomiddin Mahmudov Mamadaliyevichning xizmatlari beqiyos .

Nizomiddin Mahmudov 1951- yil 9- yanvarda Namangan viloyati Pop tumanidagi G'urumsaroy qishlog'ida tug'ilgan. 1958-1968 yillarda Farg'ona viloyati Buvayda tumanidagi 8-maktab –internati va 1- o'rta maktabda o'qigan . 1969- yilda Toshkent davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga kirgan va 1974- yilda tugatgan .

1.2. *N. Mahmudovning ijtimoiy faoliyati*

1974-yilda o'qishni tamomlagan olimning ijtimoiy faoliyati shu yillardan boshlandi. 1974-1981- yillarda Toshkent Davlat madaniyat instituti o'qituvchisi , 1981-yildan Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi , << Rus guruhlarida o'zbek tili >> kafedrasining mudiri , 1989-yildan esa o'zbek va qozoq filologiyasining dekani lavozimlarida ishlagan. Keyinchalik esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonida ma'sul lavozimlarda, 2000-2005- yillarda O'zbekiston teleradiokompaniyasi raisining birinchi o'rinbosari sifatida faoliyat ko'rsatgan. Ayni paytda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti direktori lavozimida ishlamoqda

2– bob N.Mahmudovning ilmiy faoliyati tahlili.

2.1 N.Mahmudov o`zbek tilshunosligida yangi tadqiqot yo`nalishi asoschisi sifatida

Ustozning ilmiy faoliyatidagi eng muhim yo`nalishlar sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin bo`ladi: o`zbek tilida ellipsis hodisasi; o`zbek tilidagi sodda gaplarning shakl va mazmun o`rtasidagi assimetrik munosabat; o`zbek tilida propozitsiya va presuppozitsiya masalasi; o`zbek tilida predikativlik va yarim predikativlik masalasi; o`zbek tilida kauzatsiya hodisasi; o`zbek tilida sintaktik derivatsiya masalasi; o`zbek tilidagi qo`shma gaplarni onomasiologik aspektda o`rganish ; o`zbek tilining lingvopublitsistikasi; nutq madaniyatining dolzarb muommolari; ona tili ta'limi masalalari; lingvopoetikaga oid tadqiqotlar va boshqalar.

2.2 N.Mahmudov – yangi avlod darsliklari muallifi sifatida

N.Mahmudov ilmiy ijodining yana bir muhim qirrasi bu ona tili ta'limini yangi bosqichiga ko'tarish, ona tili bo'yicha yangi avlod darsliklarini yaratish hisoblanadi. Olim boshchiligida yaratilgan o'rta umumta'lim maktablarining 5,-6,-7,-8,-9 sinflari uchun mo'ljallangan <<Ona tili>> darsliklari maktab o'qituvchi va o'quvchilariga manzur bo'lgan holda bir necha marta nashr qilingan. Bundan tashqari akademik litseylar va kasb- hunar kollejlari o'quvchlari uchun << Hozirgi o'zbek adabiy tili>> , <<Davlat tilida ish yuritish >> kabi darsliklar ham ijobiy e'tirofga sazovor bo'lgan holda qayta- qayta nashr qilindi .

Professor Nizomiddin Mamadaliyevich Mahmudov hayoti va faoliyatining asosiy sanalari

1951 yil 9- yanvar. Namangan viloyatining Pop tumanidagi G'urumsaroy qishlog'ida tug'ildi.

1968 yil. Farg'ona viloyati Buvayda tumanidagi 1- o'rta maktabni oltin medal bilan tugatdi.

1969-1974 yillar. Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universitet) ning o'zbek filologiyasi fakultetida o'qidi.

1974-1981 yillar. Toshkent davlat madaniyat institutining o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchi, katta o'qituvchi lavozimlarida ishladi.

1978 yil. "O'zbek tilida ellipsis" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1981-1985 yillar. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining umumiy tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchi lavozimida ishladi.

1984 yil. "O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik- sintatik assimetriya" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1985 – 1989 yillar. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi universiteti) ning rus guruhlarida o'zbek tili kafedراسи mudiri lavozimida ishladi.

1988 yil. O'zbek tili kafedراسи bo'yicha professor ilmiy unvoni berildi.

1989 -1996 yillar. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining rus guruhlarida o'zbek tili kafedراسи mudiri lavozimida ishladi.

1991 yil. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolicigа qabul qilindi.

1993 – 1995 yillar. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti xuzuridagi pedagogikadan doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha ixtisoslashgan kengash raisi.

1994 yil. Turkiyaning Marmara universiteti fan- adabiyot fakultetida Turkiyshunoslik tadqiqotlari institutida professor lavozimida ishladi.

1996 -2000 yillar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida yetakchi, bosh konsultant lavozimlarida ishladi.

1998 – 2007 yillar. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti huzuridagi **015. 04. 02** raqamli doktorlik ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar himoyasi bo'yicha ixtisoslashgan kengash raisi.

2000 – 2005 yillar. O'zbekiston teleradiokampaniyasi raisining birinchi o'rinbosari lavozimida ishladi.

2005 – 2010 yillar. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining o'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri lavozimida ishladi.

2010 yildan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti direktori.

O'rta ta'lim uchun yaratilgan adabiyotlar

**N.Mahmudov, TDPU
professori**

**A.Nurmonov, AnDU
professori**

**A.Sobirov, NamDU
professori**



O'zbekiston Respublikasi OO'MTV, Xalq ta'limi vazirligi, "Iste'dod" jamg'armasining "Yilning eng yaxshi darsligi" Respublika tanlovi g'olibi

ONA TILI

6



Ushbu darslik umumta'lim maktablarning 6-sinfi uchun N.Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyevalar ham muallifligida yaratilgan bo'lib "Tasvir" nashriyot uyi tomonidan 2005-2009 yillarda qayta nashr qilingan. Ushbu kitobda morfologiya, so'z turkumlari haqida dastlabki ma'lumot berilgan.

O'zbekiston Respublikasi OO'MTV, Xalq ta'limi vazirligi, "Iste'dod" jamg'armasining "Yilning eng yaxshi darsligi" Respublika tanlovi g'olibi

ONA TILI

7



N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva, A. Mirzaahmedovlar tomonidan yaratilgan 7-sinf ona tili darsligi 2005 – 2009 yillarda qayta nashr etilgan. Bunda 7-sinf o'quvchilarining bilim saviyasiga mos ravishda mustaqil so'z turkumlari, so'zlarning munosabat shakllari, yordamchi so'z turkumlari haqida bir qancha ma'lumotlar berilgan.

ONA TILI



9

www.ziyouz.com

9-sinf ona tili darsligi 2002-2006-2010 yillarda qayta nashr etilgan bo'lib, ushbu darslikda sintaksisning ancha murakkab lekin, juda muhim qismi-“Qo'shma gaplar” o'rganiladi.

Qo'shma gaplar ushbu darslikda “Bog'langan”, “Ergashgan”, “Bog'lovchisiz” tarzida 3ta guruhga tasniflangan. Bundan tashqari Murakkab qo'shma gaplar, Ko'chirma gapli qo'shma gaplar, Nutq uslublari kabi bo'limlar ham berilgan.

O'zbekiston Respublikasi OO'MTV, Xalq ta'limi vazirligi, “Iste'dod” jamg'armasining “Yilning eng yaxshi darsligi” Respublika tanlovi g'olibi

Проф. Н.Маҳмудов:

- 1. “Она тили” Умумтаълим мактабларининг 5-синфи учун дарслиги Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, «Истеъдод» жамғармаси томонидан эълон қилинган «Йилнинг энг яхши дарслиги ва ўқув адабиёти муаллифи» 2006 йил Республика танловида 2-даражали Диплом билан тақдирланган.
- 2. “Она тили” Умумтаълим мактабларининг 6-синфи учун дарслиги Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, «Истеъдод» жамғармаси томонидан эълон қилинган «Йилнинг энг яхши дарслиги ва ўқув адабиёти муаллифи» 2010 йил Республика танловида 3-даражали Диплом билан тақдирланган.
- 3. “Она тили” Умумтаълим мактабларининг 9-синфи учун дарслиги Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, «Истеъдод» жамғармаси томонидан эълон қилинган «Йилнинг энг яхши дарслиги ва ўқув адабиёти муаллифи» 2006 йил Республика танловида 2-даражали Диплом билан тақдирланган.
- 4. “Ўқитувчи нутқи маданияти” дарслиги Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, «Истеъдод» жамғармаси томонидан эълон қилинган «Йилнинг энг яхши дарслиги ва ўқув адабиёти муаллифи» 2008 йил Республика танловида 3-даражали Диплом билан тақдирлаган.
- 5. “Давлат тилида иш юритиш” дарслиги Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, «Истеъдод» жамғармаси томонидан эълон қилинган «Йилнинг энг яхши дарслиги ва ўқув адабиёти муаллифи» 2006 йил Республика танловида 2-даражали Диплом билан тақдирлаган.


N.Mahmudov “Soʻz estetikasi”, “Oʻzimiz va soʻzimiz”, “Maʼrifat manzillari” singari qator asarlari bilan olim soʻz sehri, soʻzning magik quvvati, shaxs tarbiyasida nutqning roʻli kabi muammolarni taʼsirchan til orqali ommaga yetkazishda katta xizmat qildi. Buning natijasida, oʻzbek tilshunosligida yangi yoʻnalish – lingvopublitsistika yoʻnalishi maydonga keldi. Bu yoʻnalishning paydo boʻlishi lingvistika fani qoʻlga kiritgan yutuqlarni ommalashtirishda, yoshlarga nutq odobini singdirishda juda katta ahamiyatga ega boʻldi.

“Ma’rifat manzillari” risolasi

Ushbu risola tili o‘zbek madaniy nutqining yorqin namunasi ekanligi bilan ajralib turadi. Qo‘yilgan sarlavhalar ham o‘zbek saj’ san’atini o‘zida namoyon qiladiki, o‘quvchi diqqatini darrov o‘ziga jalb qiladi. Masalan, “Milliy g‘oya – istiqbolga deya”, “Ta’lim va muallim”, “Zamonaviy kadr va milliy kadr” va boshqalar. Risoladan o‘rin olgan har bir maqolar shunday shirali til bilan yozilganki, o‘quvchini o‘ziga rom qiladi.

Nutq odobi haqida muallif quyidagicha yozadi: “Bizning asrlarni allalagan yurtimizda ahloq benihoya serqamrov, mag’zi to’q, qiyosi yo’q tushuncha sifatida ardoqlab kelinadi. Ma’nili va bejirim gapira bilish, nutq daryosidagi maqbul va nomaqbul to’lqinlarni ilg’ay olish, so’zning orqa-o’nggini, munosib o’rnini farqlay bilish, nutqiy fahmu farosat, tarhli nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy ahloqining, ma’naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan”.

Oliy ta'lim uchun yaratilgan adabiyotlar



N.Mahmudov tanqidchilikda ham o'ziga xos yo'nalishga ega bo'lgan munaqqidlardandir. "So'zni qayliq saylagandek sevib sayla", "So'z ma'suliyati", "Navqironlar so'zi navqiron bo'lsin", "Har bir so'z bersin sado", "Qalbimning bayrog'idir so'z", "So'z ziyorati", "So'z va soz" singari o'nlab maqolalari, "So'z estetikasi", "O'zimiz va so'zimiz" nomli risolalari so'z jilolarining turli qirralarini tahlil qilishga qaratilgan. Sezgir so'zshunos, mohir pedagog bunday mavzularda maqola va risolalar yozish jarayonida o'zbek nutqining boyligi, ta'sirchanligi, ifoda imkoniyatlarining kengligini yoritish bo'yicha katta tajriba to'pladi. Bu tajriba "O'qituvchi nutqi madaniyati" kitobining yozilishiga zamin yaratdi.

“O’qituvchi nutqi madaniyati” darsligi

Darslikda nutq madaniyatining boshqa fanlar bilan munosabati, madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlariga alohida e’tibor qaratiladi va shundan keyin nutqning madaniyligini ta’min etadigan to’g’rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo’yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar ta’rif-tavsifiga kirishiladi. Bu tushunchalarga mazkur darslikkacha yaratilgan tadqiqot va qo’llanmalarda ham yetarli ma’lumotlar berishga harakat qilingan. Ammo ularning hech birida bu kitobdagidek sodda, ta’sirchan va obyektning muhim belgi-xususiyatlarini qamrab olgan ta’rif mavjud emas edi. Professor N.Mahmudovning mazkur darsligida yuqoridagi me’yorlarning amal qilish va buzilish holatlari jonli til va badiiy asarlardan olingan misollar orqali dalillanadi.


O'rta maxsus ta'lim uchun yaratilgan adabiyotlar

**Н.Махмудов, ТДПУ
профессори**

**А.Нурмонов, АнДУ
профессори**

**А.Собиров, НамДУ
профессори**

**Ш.Юсупова, АнДУ
профессори**



“Tilshunosligimiz darg’asi”

TDPU professorlari I.Yo’ldoshev, S.Muhamedova va O’zMU professori M.Qurbonovalarning ushbu maqolasida N.Mahmudovga xos bo’lgan uch muhim xususiyat ajratib ko’rsatiladi:

1. N.Mahmudov – o’zbek fani, tilshunosligining rivojiga ulkan hissa qo’shgan, o’zbek tilshunosligida o’z maktabini yaratgan yirik nazariyotchi olim.
2. N.Mahmudov – ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotning barcha sohalarida sermahsul ijod qilgan, xalq manfaati, farovonligi yo’lida tinmay zahmat chekkan rahbar, tashkilotchi.
3. N.Mahmudov – tilshunoslik ilmini o’zining taqdiri deb bilguvchilarning mehribon ustoz.

Professor Nizomiddin Mamadaliyevich Mahmudovning ilmiy va ilmiy-ommabop asarlari bibliografiyasi

1. Soʻz estetikasi / X. Abdurahmonov, N. Mahmudov; Maʼsul muharrir Sh. Shukurov. – T.: Fan, 1981. – 60 b.
2. Madaniy-oqartuv xodimlari uchun qisqacha izohli lugʻat / X. Abdurahmonov, N. Mahmudov, R. Shukurov. – T.: Oʻqituvchi, 1983. – 144 b.
3. Gapda forma va mazmun / N. Mahmudov. – T.: Oʻzbekiston, 1984. – 16 b.
4. Oʻzbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya / N. Mahmudov. – T.: Oʻqituvchi, 1984. – 148 b.
5. Til va yozuv / N. Mahmudov. – T.: Oʻzbekiston, 1987. – 22 b.
6. Oʻzbek nutqi madaniyati asoslari: kursi programmasi : Ped. In-tlari uchun / Tuzuvchilar: N. Mahmudov, A. Shermatov. – T.: 1987. – 16 b.
7. Yozuv tarixidan qisqacha lugʻat-maʼlumotnoma / N. Mahmudov. T.: Fan, 1990. – 56 b.
8. Madaniy- maʼrifiy ishlar: Ruscha-oʻzbekcha atamalar lugʻati / N. Mahmudov, B. Karimov, I. Yoʻldoshev, N. Abdugʻapporov. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1990. – 158 b.
9. Oʻzbek tili: Pedagogika in-tlarining rus gruppalari uchun programma / B. Toʻxliyev, V. Oʻtanova, N. Mahmudov va boshq.; Respublika oʻquv metodika markazi. – T., 1990. – 46 b.
10. Oʻzbek tilida ish yuritish / N. Mahmudov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov, M. Aminov. – T.: Oʻzbek ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. – 224 b.

11. O`zbek tilini o`rganamiz: Rasmi lug`at / N.Mahmudov, B.To`xliyev. – T.: O`qituvchi, 1991. – 128 b.
12. Til va madaniyat / M.Mirtojiyev, N.Mahmudov. – T.: O`zbekiston, 1992. – 110 b.
13. O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi / A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Ahmedov, S.Solixo`jayeva. – T.: Fan, 1992. – 296 b.
14. Turkcha-o`zbekcha, o`zbekcha-turkcha lug`at / N.Mahmud, E.Yaman. – T.: G`.G`ulom nomidagi Ad-t va san`at n-ti, 1993. – 320 b.
15. Ekologiya atamalarining ruscha-o`zbekcha qisqacha lug`ati / A.To`xtayev, A.Zikiryayev, N.Mahmudov. – T.: Fan, 1995. – 320 b.
16. O`zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. / N.Mahmudov, A.Nurmanov. – T.: O`qituvchi, 1995. – 232 b.
17. Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosi va imlosini o`rganish: kurs dasturi / N.Mahmudov. B.To`xliyev, R.Abdulahatova; RTM. – T., 1996..
18. O`zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida / N.Mahmudov va boshq. – T.: O`qituvchi, 1996. – 121 b.
19. O`zbek nutqi madaniyati asoslari: kurs dasturi / N.Mahmudov. A.Shermatov; Tuzatilgan qayta nashri; RTM. – T., 1997. – 11 b.
20. O`zimiz va so`zimiz / N.Mahmudov. – T.: G`.G`ulom nomidagi Ad-t va san`at n-ti, 1997. – 112 b.

21. Til / N.Mahmudov. – T.: Yozuvchi, 1998. – 37 b.
22. Komillik kaliti: Ma`naviyatdan o`zbekcha-ruscha-inglizcha lug`at / N.Mahmudov, E.Saidqulov, F.Sotimov. – T.: Ma`naviyat, 1999. – 278 b.
23. Ma`rifat manzillari / N.Mahmudov. – T.: Ma`naviyat, 1999. – 64 b.
24. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish: Kasb-hunar kollejlari uchun o`quv dasturi / N.Mahmudov. A.Rafiyev; O`rta maxsus, kasb-hunar ta`lim markazi. – T., 1999. – 15 b.
25. Ish yuritish: Amaliy qo`llanma / M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov; Muharrir N.To`xliyev. – T.: O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2000. – 448 b.
26. O`zbek tilshunosligi tarixi / A.Nurmonov, N.Mahmudov. – T.: Kamolot – Qatortol, 2000. – 172 b.
27. Ona tili: 8-sinf uchun darslik / H.Ne`matov, N.Mahmudov, R.Sayfullayeva va boshq. – T.: Ijod dunyosi, 2001. – 94 b.
28. Ona tili: 8-sinf uchun darslik / H.Ne`matov, N.Mahmudov , R.Sayfullayeva va boshq. – T.: Ijod dunyosi, 2002. –112 b.
29. Ona tili: 9-sinf uchun darslik / H.Ne`matov, N.Mahmudov, A.G`ulomov va boshq. – T.: O`qituvchi , 2002. – 96 b.
30. Davlat tilida ish yuritish : Akademik litseylar uchun darslik / N.Mahmudov, A.Rafiyev, I.Yo`ldoshev; O`zR Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`rta maxsus kasb – hunar ta`limi markazi. – T .: Sharq, 2003. – 93 b.

31. Ona tili : 8-sinf uchun darslik / H.Ne`matov, N.Mahmudov R.Sayfullayeva. – T .: Ijod dunyosi, 2003. – 112 b.
32. Hozirgi o`zbek adabiy tili: O`rta maxsus, kasb – hunar ta`limi o`quv muassasalar o`quvchilari uchun darslik / A.Nurmonov, N.Mahmudov A.Sobirov va b. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003. – 192 b
33. Ona tili: 5-sinf uchun darslik / N.Mahmudov A.Nurmonov, A.Sobirov va b. – T.: Ma`naviyat, 2004. – 224 b
34. Ona tili: 5 – sinf o`qituvchilar uchun metodik qo`llanma / N.Mahmudov A.Nurmonov, A.Sobirov va b. – T.: Ma`naviyat, 2004. – 176 b
35. Ona tili: 8 – sinf uchun darslik / H.Ne`matov, N.Mahmudov R.Sayfullayeva va b. – T.: Ijod dunyosi, 2004. – 112 b.
36. Hozirgi o`zbek adabiy tili: O`rta maxsus, kasb – hunar ta`limi o`quv muassasalari o`quvchilari uchun darslik / A.Nurmonov, N.Mahmudov A.Sobirov va b. 2 – nashri. – T.: Ilm – ziyo, 2004. – 192 b
37. Ona tili: 6 – sinf uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov va b. – T.: Tasvir, 2005 – 176 b
38. Ona tili: 7 – sinf uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov va b. – T.: Ma`naviyat, 2005 – 128 b
39. Davlat tilida ish yuritish: Darslik / N.Mahmudov, A.Rafiyev, I.Yo`ldoshev; O`zR Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`rta maxsus kasb – hunar ta`limi markazi, o`rta maxsus kasb – hunar ta`limini rivojlantirish in – ti. – T.: Sharq, 2006. – 96 b
40. Komillik kaliti: Ma`naviyatdan o`zbekcha – ruscha – inglizcha lug`at / N.Mahmudov, Z.Saidqulov, F.Sotimov; Qayta nashr. – T.: “Tasvir “ nashriyot uyi, 2006. – 128 b.

41. Davlat tilida ish yuritish: Darslik. – 2 – nashri – T.: Cho`lpon, 2007. – 128 b.
42. Ona tili: 5 – sinf uchun darslik – 2 – nashri. – T.: Ma`naviyat, 2007. – 224 b.
43. O`qituvchi nutqi madaniyati: Bakalavriat uchun darslik /N.Mahmudov: O`zR Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O`z-n Milliy Kutubxonasi nashriyoti , 2007. – 188 b.
44. Davlat tilida ish yuritish : Akademik litseylar uchun darslik. – T.: Sharq, 2008. – 96 b
45. Ona tili: 6 – sinf uchun darslik. – 2 – nashri. – T.: Tasvir, 2009. – 176 b
46. Ona tili : 7 – sinf uchun darslik. 2 – nashri. – T.: Ma`naviyat, 2009. – 128 b
47. O`qituvchi nutq madaniyati: 2 – nashri. – T.: 2009. – 188 b.
48. Ish yuritish / M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov. – Qayta nashr. – T.: O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2009. – 444 b
49. Ona tili 9 – sinf uchun darslik; 2 – nashri. – T.: Tasvir. 2010. 128 b.
50. Hozirgi o`zbek adabiy tili: Akademik litseylar va kasb – hunar kollejarining 3 – bosqich o`quvchilari uchun darslik 3 – nashri A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. – T.: Ilm – ziyo. 2010. – 160 b.

Professor N.Mahmudovning ilmiy maslahatchiligi
va rahbarligida tayyorlangan fan doktorlari va
nomzodlari

F a n d o k t o r l a r i

- 1.Ko`chimov Sh.N. Huquqiy normalarni o`zbek tilida ifodalashning ilmiy – nazariy muammolari(lingvoyuridik tahlil). Toshkent , 2003.
2. Yo`ldoshev I.J. O`zbek kitobatchilik terminologiyasi: shakllanishi, taraqqiyoti va tartibga solish. Toshkent, 2005.
3. Nabiyeva D.A. O`zbek tili sathlarida dialektik kategoriyalarning namoyon bo`lishi(umumiylik va xususiylik asosida). Toshkent, 2007.

F a n n o m z o d l a r i

- 1.Yo`ldoshev I.J. O`zbek tilining kutubxonachilik – bibliografiya terminologiyasi. Toshkent 1988.
- 2.Zayniddinova D. Rus va o`zbek tillarida g`ayriodatiy birikmalar. Toshkent, 1990.
- 3.Ko`chimov Sh.N. O`zbekiston Respublikasi qonunlarining tili. Tosh, 1990.
- 4.Nabiyeva D.A. O`zbek tilida lisoniy birliklarning invariant-variant munosabati (fonetik sath). Tosh, 1997.
- 5.Bekniyozova N.I. Ta`lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning boshlang`ich sinflarida o`quvchilar so`z boyligini oshirish (predmet belgisini bildiruvchi so`zlar misolida). Tosh, 1998.
- 6.Po`latova O.M. O`zbek tili raqs san`ati terminologiyasining shakllanish manbalari va rivoji. Tosh, 1999.
- 7.Nishonova N. O`zbek tilida “hayvon” arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili. Tosh, 2000.
- 8.To`xtasinova O.Yu. O`zbek tilida okkazionalizmlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari. Tosh, 2007.
- 9.Akbarova Z.A. O`zbek tilida murojaat shakllari va ularning lisoniy tadqiqi. Tosh, 2007.
- 10.O`rinova O.T. O`zbek tilidagi. Qoramolchilik terminlarining leksik – semantik tadqiqi. Toshkent , 2007.
- 11.Jamoliddinova D.M. Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik – grammatik va lingvopoetik xususiyatlari. Toshkent, 2009.
12. Abdullayeva D. O`zbek tilida antisemiya. Toshkent, 2010.